



BUGUNGI ADABIY JARAYONDA DRAMATURGIYA

Jo'rayeva Sarvinoz

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti O'ZMPU
Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
401-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek dramaturgiyasining faol ijodkorlaridan biri dramaturg Sanjarali Imomov ijodi, uning hayot yo'li, asarlarining badiiy xususiyatlari va tarbiyaviy ahamiyati keng tahlil qilinadi. Shuningdek, bugungi o'zbek adabiy jarayonida dramaturgiya janrining tutgan o'rni, zamonaviy teatr amaliyotidagi ahvoli va rivojlanish yo'nalishlari ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Sanjarali Imomov, dramaturgiya, teatr, sahna, yumor, kulgu, qaynona, oila, hajv, qayg'u, yurist, mualliflik huquqi, qonun

Аннотация: В данной статье представлен всесторонний анализ творчества одного из активных деятелей современной узбекской драматургии, драматурга Санджарали Имомова, его жизненного пути, художественных особенностей и образовательного значения его произведений. Также освещается роль драматического жанра в современном узбекском литературном процессе, его статус в современной театральной практике и направления развития.

Ключевые слова: Санджарали Имомов, драматургия, театр, сцена, юмор, смех, свекровь, семья, сатира, грусть, юрист, авторское право, закон

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the work of one of the active creators of modern Uzbek dramaturgy, playwright Sanjarali Imomov, his life path, the artistic features and educational significance of his works. It also highlights the role of the drama genre in today's Uzbek literary process, its status in modern theatrical practice, and its development directions.

Keywords: Sanjarali Imomov, dramaturgy, theater, stage, humor, laughter, mother-in-law, family, satire, sadness, lawyer, copyright, law

KIRISH

O'zbek adabiyotshunosligi uzoq yillik tarixga ega bo'lib, unda dramaturgiya sohasi ham alohida o'rin egallaydi. Mustaqillikdan beri o'zbek sahna san'ati yangi bir yuksalish bosqichini boshdan kechirmoqda: mamlakat teatrlari yangicha asarlar bilan boyimoqda, teatr sohasi va sahnasi yangicha ko'rinishga keltirilmoqda, yosh va o'rta avlod dramaturglari o'zlarining original asarlari bilan adabiy hayotga qo'shilmoqda. Bugungi kundagi o'zbek dramaturgiyasida an'anaviy va zamonaviy uslublarning uyg'unligi, hayotiy haqiqat va badiiy ta'sirchanlikning birligi tobora yaqqolroq ko'zga tashlanmoqda.

Bolalar adabiyoti fanining muhim tarkibiy qismi bo'lgan dramaturgiya sohasi ham o'z oldiga bir qancha vazifalarni qo'yadi: yoshlarning ma'naviy olaminini boyitish, ularning estetik didini shakllantirish, milliy qadriyatlarni targ'ib qilish hamda

jamiyatdagi murakkab munosabatlarni sodda va ta'sirchan tarzda aks ettirish. Zamonaviy dramaturglar ana shu ulkan vazifani bajarish yo'lida izlanuvchanlik bilan mehnat qilmoqdalar.

ASOSIY QISM

Dramaturgiya sohasi adabiyotning eng qadimiylaridan biridir. U so'z va harakat, his-tuyg'u va fikr, milliy ruh va insoniy qadriyatlarini sahna orqali jonli va bevosita ifodalaydi. Dramaturgiya nafaqat teatr uchun asar yozish san'ati, balki insoniyat tajribasining badiiy ko'zguvidir. Jamiyatda bo'layotgan voqea va hodisalar dramaturgiyada harakatlar va voqealıklar vositasida yanada aniq qilib ko'rsatib beriladi.

O'zbek dramaturgiyasi Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Sa'dulla Siyoyev kabi ulkan siymolar an'anasiga tayanib, mustaqillik yillarida yangi bosqichga ko'tarildi. Bugun Haydar Muhammad, O'lmas Umarbekov, Go'zaloy Matyoqubova kabi dramaturglar o'z asarlari bilan sahna san'atini boyitmoqda. Ular orasida Sanjarali Imomov ham o'zining faol ijodi bilan alohida o'rin egallaydi. Yurtimizda hozirgi kunda 30 dan ortiq teatrlar faoliyat olib bormoqda. Bu teatrlar uchun milliy dramaturglarning ijodiy asarlariga ehtiyoj doimo mavjud. Shunday muhitda Sanjarali Imomov singari ijodkorlarning dramalari o'zbek teatri repertuarini to'ldirish va boyitishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sanjarali Imomov - zamonaviy o'zbek adabiy jarayonining faol ishtirokchisi bo'lib, dramaturg va ssenariynavis hamdir. U Toshkentda tavallud topgan bo'lib, o'zbek milliy madaniyati bag'rida tarbiya topgan. Adibning ijodiy yo'li erta yoshdan boshlangan - u maktab yillaridanoq so'z san'atiga, sahna dunyosiga qiziqish bildirgan. Sanjarali Imomov oliy ta'limni Toshkentda olgan va uning yuristlik ma'lumotiga ega ekanligi uning ijodiy faoliyatida mualliflik huquqini himoya qilish borasidagi faoliyatida namoyon bo'ladi. Bu esa uning ijodkor sifatida nafaqat qalam, balki qonun bilan ham adabiy huquqlarni himoya qila olish qobiliyatini namoyish etgan.

Dramaturgning ijod yo'llari asosini teatr tashkil qiladi. U o'zining shu kungacha bir qancha teatr asarlarini O'zbek Milliy Akademik Drama teatri va boshqa teatrlarga taqdim etgan. Ssenariynavis sifatida ham dramaturg o'z iste'dodini namoyon etgan. Uning "Supep qaynona" (2012) kabi ssenariylar asosida suratga olingan kinolari o'zbek tomoshabinlari orasida keng tarqaldi. Bu asarlarda o'zbek oila munosabatlari, an'analar va zamonaviy hayot o'rtasidagi qarama-qarshiliklar yumoristik va ta'sirchan tarzda aks ettirilgan.

"Super qaynona" musiqali komediyasi Muqimiy nomidagi teatrda sahnalashtirilgan va bu asarda oilaviy hayotdagi qaynona-kelin munosabatlarini satirik tarzda yoritilgan. An'anaviy oila muammolarini zamonaviy nuqtai nazardan ko'rib chiqib, hazil bilan hal qilish yo'llarini taklif etilgan va sahnalashtirilgan. Ushbu komediyada musiqali elementlar asarni yana ham jozibali qilishga, obrazlar esa hajv va yorqinlikka, dialoglar tabiiy va tomoshabinlarni kuldirishga qaratilganligi bilan sevib tomosha qilinadi.

"O'jar qaynona" musiqali komediyasida esa oila hamjihatligini mustahkamlash, avlodlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash mavzusiga qaratilgan. Imomovning uslubi realistik, hayotiy voqealarga asoslangan bo'lib, satira va musiqani mohirona uyg'unlashtiradi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish joizki, Sanjarali Imomov dramalari bolalar va yoshlar adabiyotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ular oila qadriyatlarini, mehnatsevarlikni, halollikni, hurmat va o‘zaro tushunishni targ‘ib qiladi. “Dadajon demasman” kabi asarlari yosh avlodga ota-ona hurmatini, oilaviy mas’uliyatni o‘rgatadi. Hazil orqali salbiy xususiyatlardan voz kechishga undaydi. Bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni saqlash va oilani mustahkamlashda bunday asarlar katta rol o‘ynaydi. Dramaturgiya tomoshabinni faol ishtirokchi qilib, empatiya va axloqiy tanlovni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Imomov B., Jo‘rayev Q., Hakimova H. O‘zbek dramaturgiyasi tarixi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
2. Mahmudov N. O‘zbek adabiyoti tarixi: XX asr. — Toshkent: Fan, 2010.
3. Yo‘ldoshev Q. Adabiyotshunoslikka kirish. - Toshkent: O‘qituvchi.
4. Rahmonov M. O‘zbek teatri tarixi. - Toshkent: O‘zbekiston.
5. Haydar Muhammad. Ssenariynavislik mahorati. - Toshkent: DSMI nashriyoti, 2022. - 218 b.
6. Qodirov P. Dramaturgiya va hayot. — Toshkent: Adabiyot va san'at, 2005. — 176 b.
7. Umarov E., Ulashev I. O‘zbek adabiyoti. — Toshkent: Sharq, 2015. — 512 b.
8. Sanjarali Imomov bilan suhbat. Ozodlik radiosi. — 2020-yil, 18-sentabr.